O’smaga qarshi faollikka ega polisaxaridlar

Hozirgi kunda dunyoda va respublikamizda xavfli o’sma kassaligi aholi orasida keng tarqalib borayotgan kassaliklardan hisoblanadi. Amalda qo’llaniluvchi sitotoksik dori vositalarining organizmda sistematik nojo’ya ta’sirlarga ega ekanligi, yomon o’zlashtirilishi hamda ularga nisbatan o’sma hujayralarining rezistent bo’lib qolishi xafvli o’sma kasalliklarini davolashning asosiy muammolari hisoblanadi. Kasallikni davolashning ko’plab yangi usullari va vositalari ishlab chiqilayotgan bo’lsa-da, sitotoksik pretaratlar bilan kimyoviy davolash ushbu kasallikni davolashning asosiy qismi bo’lib qolmoqda.

O`zR FA Biorganik kimyo instituti tomonidan tabiiy manbalardan o’smaga qarshi faollikka ega polisaxaridlarni ajratib olish va ularni faollik mexanizmlarini aniqlash, shuningdek, funksional polisaxaridlarni sitotoksik birikmalar bilan molekulyar konstruktsiyalash orqali zaharli ta’sirni kam bo’lgan, yo’naltirilgan ta’sirga ega yangi avlod dori vositalarini olish bo’yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Olib borilgan tadqiqot natijalari zamburug’lardan ajratib olingan polisaxaridlar o’smaga qarshi immun tizimini faollashtirishi va xavfli o’smaga qarshi 40-60% faollik namoyon qilishini ko’rsatgan. Tadqiqotlar natijasida funksional polisaxridlarni sitotoksik birikmalar bilan molekulyar konstruksiyalash usullari ishlab chiqilgan va olingan namunalarning kam zaharlilgi hamda xavfli o’smaga qarshi 70-80% ingibirlovchi faollik namoyon qilishi aniqlangan.